ОЗИҚ-ОВҚАТ ХАВФСИЗЛИГИ: МИЛЛИЙ ВА ГЛОБАЛ ОМИЛЛАР

II-ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ КОНФЕРЕНЦИЯ ДАСТУРИ

2020 йил 16-17 октябрь
Самарқанд, Ўзбекистон

“Food Security: National and Global Drivers”

International Scientific and Theoretical Conference

16-17 October 2020

Samarkand, Uzbekistan

Самарқанд - 2020

Хамраева Д.Т., Саитжанова У.Ш. Перспективы выращивания *Ferula tadshikorum* в условиях интродукции	420
Хожиматов О. К. Современное состояние *Cappris spinosa* l. в Узбекистане	421
Худойбердиева С.Н., Авалбаев О.Н., Хайдаров Х.Қ. *Ferula* l. туркуми турлари уруғининг унувчанлиги	424
Хўжамова Г.Х., Аҳмедов С.И., Умурзоқова У.Э. Зараркунандаларга қарши курашда фитоинсектицидлардан фойдаланиш	427
А.Н. Хужанов, З.З. Қосимов *H.maracandicum* захиралари ва ва мухофаза қилиш чоралари	429
Х.Хурсанов, Э.Умурзаков Ғўза тунлами миқдорини аттрактантлар ёрдамида бошқариш	431
Хусаинова М.А., Нуруллаева Н.С., Хайдаров Х.К. Ядовитие оранжерейные растения Самгу	433
В.К. Шарипова Анатомическое строение черешочка листа некоторых видов рода Ferula L	436
Шерназаров Ш.Ш., Ташпулатов Й.Ш., Дустов Б.С., Қобулова Б.Б. Қорасув сув омбори альгофлорасининг шаклланиши ва уни балиқлар озиқланишидаги аҳамияти	438
Э.У. Умурзоқов, А.Р. Рахимов, Л.Б. Халмирзаева Унаби пашшасига қарши кимёвий воситаларни қўллашнинг иқтисодий самарадорлиги	440
А.Ҳ. Эшонқулов, Ҳ.Қ. Эсанов Бухоро анъанавий таомларидаги баъзи табиий ҳолда ўсувчи доривор ўсимликлар	442
М. Юнусов, Ф. Хабибуллаев. Зараркунандалардан ҳимоялашни зарарсиз усуллари	445
NurullayevaN.S., Safarova D.M., Rasulov S.Q., Importance of the genus *Lycium* l. species	447
O.G'. Xurrmov, B.S. Islomov SHirinmiya o'simligining ba'zi biologik xususiyatlari	448
А.А.Абдуразаков, Ю.Ш. Ғаффоров Ўзбекистонда тарқалган доривор зирк (*Berberis* spp.)ўсимлик турларининг микобиотаси	450
Хусаинова М.А., Хайдаров Х.К. Полезные свойства барбариса	452
Ахмедов А.К., НомозоваЗ.Б.,Хасанов М.А., Расулова З.А. Морфология цветка некоторых видов рода *lagochilus*	454
Исматова З. А. Сангзор дарёси альгофлорасининг ҳозирги ҳолати	457
Исматова З. А. Сангзор дарёсида аниқланган кўк-яшил сувўтлари	459
Бўриев С.Б., Қобилов А.М., Юлдашов Л.Т. Фермер хўжаликларида микроскопик сувўтлардан фойдаланишнинг амалий аҳамияти	461
А. Норқулов, А.Р. Анорбаев, А.М. Худойқулов Тупроқ ости зараркунандаларининг қишлов олди популяцияси зичлигини аниқлаш	463
[1]Г.К. Норимова, [2]Ю.Ш.Ғаффоров Зарафшон миллий табиат боғи юксак ўсимликлари айрим микромицетлари	465
И.У. Мукумов, Ш.Ф.Шакирова, М.Нурмуратова. Род delphiniuml. (живокость) во флоре самаркандской области	466
И.У. Мукумов Род eremurus m.bieb. (эремурус) во флоре самаркандской области	468
И.У.Мукумов, Х.Жалов Род glaucium adans. во флоре самаркандской области	470
Д.И. Сотиболдиева Определение характерных диагностических признаков корневища *curcumalonga* в условиях узбекистана	472
И.У. Мукумов, З.А. Расулова Род pulicariagaerth. (блошница) во флоре самаркандской области	475
Вахабова Н.А, Кан С.В Перспективы использования культуры тканей in-vitro вида capparisspinosa для получения биологически активных веществ	477
И.У. Мукумов, Ф. Баходиров Вегетативное размножение тисс ягодный (taxusbaccatal.) в закрытом грунте	480

(13percent), a complete spectrum of antioxidantcarotenoids, including beta-carotene (a better sourcethan even carrots) and zeaxanthin (protects the eyes).Goji berries are the richest source of carotenoids ofall known foods. In addition, this fruit is rich invitamin C (at higher levels than even those found inoranges), B-complex vitamins - necessary forconverting food into energy, vitamin E - very rarelyfound in fruits, only in grains and seeds, betasitosterol - an anti-inflammatory agent, as well as alarge number of essential fatty acids - which arerequired for the body's production of hormones andfor the smooth functioning of the brain and nervoussystem, cyperone - a sesquiterpene that benefits theheart and blood pressure, alleviates menstrualdiscomfort, and has been used in the treatment ofcervical cancer, solavetivone – a powerful anti-fungal. The benefits on human health, the therapeuticalfeatures of the goji berries are associated to a largenumber of hypoglycaemia, immune modular, antihypertensive, hepatic, anti-ageing, anti-fatigue,anti-oxidant, etc. treatments.

All these features recommend the introduction ofthe goji berries in nutrition either fresh, dried, or inpreparations as healthy foods such as teas, syrups, jam, etc.

References

1. Ioan Gogoasa et al. Goji berries (*Lycium barbarum*) as a source of trace elements in human nutrition. Journal of Agroalimentary Processes and Technologies 2014, 20(4), 369-372

2. Peng Q, Lv XP, Xu QS, Li Y, Huang LJ, Du YG Isolation and structural characterization of the polysaccharide LRGP1 from *Lycium ruthenicum*. 2012.90:95–101

SHIRINMIYA O'SIMLIGINING BA"ZI BIOLOGIK XUSUSIYATLARI

O.G'.Xurramov, B.S.Islomov
Samarqand Davlat Universiteti

Hozirgi paytda tibbiyotda va xalq tabobatida 1250 dan ziyod dorivor o'simlik turlaridan foydalaniladi[1]. Mamlakatimiz hududida 1700 turga yaqin, Samarqand viloyati hududida esa 1140 dan ziyod dorivor o'simlik turlarini uchratish mumkin[2].

Ana shunday muhim giyohlardan biri (Glycyrrhiza glabra-L.)-shirinmiya o'simligidir. Ushbu o'simlik 3000 yillik tarixga ega bo'lib, qadimda Xitoy tabobatida munosib o'rin egallagan. Ibn Sino ham o'zining "Tib qonunlari" va boshqa asarlarida shirinmiya o'simligining dorivorlik xususiyatlari haqida yozib qoldirgan. Hozirgi kunda ham bu o'simlikka xalq tabotatida va ilmiy tibbiyotda hamda xalq xo'jaligining 20 dan ortiq sohasida ehtiyoj katta[3]. Shirinmiya (Glycyrrhiza glabra-L.)- dukkakdosh (Fabaceae)lar oilasiga mansub ko'p yillik o't o'simlik. O'simlikning shirinmiya deb nomlanishiga sabab uning ildiz sistemasi bilan, ya'ni ildizi tarkibidagi glitsirrizin kislotasi bilan bog'liq. O'simlik o'zbekchada Qizilmiya, Chuchukmiya, Qoraqalpoqchada Bo'yon, ruschada Солодка deb nomlanadi. Shirinmiyaning fanda 18 turi ma'lum bo'lib, 5 turi O'rta Osiyoda keng tarqalgan[3].

Bu o‘simlik sho‘r tuproqli cho‘llarda, cho‘llardagi ariq, kanal va daryo bo‘ylarida, begona o‘t sifatida ekinzorlarda o‘sadi. Asosan, O'rta Osiyoning cho‘1 va yarimcho‘1 tumanlarida, Qozog‘iston, Shimoliy Kavkaz, Zakavkazye hamda Ukraina, Moldova, Belorus, Rossiyaning Yevropa qismining janubida uchraydi. Dorivor mahsulot Ural daryosining vodiysida, Dog‘iston, Turkmanistonda va O‘zbekistonda (Amudaryo va Sirdaryo bo'ylarida) hamda Janubiy Qozog‘istonda tayyorlanadi.[1]

O’tkazgan tajribalarimiz asosida Shirinmiya o’simligining yer ustki qismi 50-100 sm dan 150 sm gacha bo’lishi, bargi toq patli, murakkab, 3—7 juft bargchalardan tashkil topganligi, barglari ellipssimon, cho‘ziq-tuxumsimon yoki lansetsimon, tekis qirrali, yopishqoq bezlar bilan qoplanganligi aniqlandi. Qo‘shimcha barglari mayda, lansetsimon bo‘lib, to'kilib ketadi[4].

Biz ildiz tizimini Taranovskayaning Transheta qazish metodi bilan o’rgandik. O’simlikning yer ostki qismi kuchli taraqqiy etgan. O’simlikning ildizi 4-5 m gacha yon tomonga o’sadi. Ildiz bachkilari yordamida vegetativ yo’l bilan yaxshi ko’payadi.

Ildiz po’stlog’i jigar rangli bo’lib, ildiz tarkibida 3-24% glitsirrizin, 8% glukoza, 11% saxaroza, 43% kraxmal, 24% klechatka uchraydi[5].

1-rasm.

Markaziy Osiyoda shirinmiya o'simligining ildiz-xomashyosini sanoat asosda yig'ib olish XX-asr boshlarida amalga oshirila boshlangan. Turkistonda ildizdan foydalanish 1906-yilda boshlangan. Shu yili Azarboyjondan Amerikaning Mak-andryus firmasi Charjau shahriga olib kelingan. 1947-yilning avgust-sentyabr oylarida Amudaryoning ikki bo'yining geobotanikasi o'rganilgan, unda shirinmiya o'simligining tarqalishi va zaxirasi bo'yicha ma'lumotlar yig'ilgan. B.B.Kerbabaev, A.A.Meineryakov, A.N.Gladbishevlar ma'lumotlarida Turkmanistonda shirinmiya o'simligi asosan Amudaryoning quyi mintaqasida tarqalgan. “Sredazlakritsa” firmasi 1963 yili 11000 tonna quruq ildiz tayyorlagan[5]. Bu xududlardan yig'ib olingan ildiz xomashyosi dunyo bozorida yuqori baholanadi.

Shirinmiya ildizi organizmni yoshartiruvchi jenshendan keyin ikkinchi dori modda hisoblanadi va qariyalarga ko'proq tavsiya qilinadi. Shirinmiya ildizi pivo ichimligini tayyorlashda, konditer mahsulotlari ishlab chiqishda, kulinariyada va boshqa texnik maqsadlarda ishlatiladi. O'rta asrning sharq tibbiyotida shirinmiya ildizi ekstrakti bilan davolash san'ati Ibn Sino tomonidan umumlashtirilgan, uning siqib olingan sharbati va ildizi tirnoqxo'rlikda bog'lanadi. Uning surtmasi olovdan kuyganda bog'lanadi, siqib olingan sharbat bilan esa yaralar yuviladi. Shirinmiyada OITS ga, rak kasalliklari va boshqalarda retroviruslarga katalitik tas'ir etuvchi, bir qator ferment

sistemalariga ta'sir etuvchi birikmalar borligi aniqlangan. Shirinmiya o'pka yo'llarini yumshatadi va uni tozalaydi, u o'pka va tomoqqa foydali va tovushni tiniqlashtiradi. Bundan tashqari shirinmiya ekstrakti *in vitro* va *in vivo* antioksidant va antiradikal faollikka ega. Shirinmiyaning suvli ekstrakti sichqonlar jigaridagi mikrosomalardagi lipidlarni pereks oksidlanishini susaytiradi. Shirinmiya ekstrakti gidroksil, peroksil va superoksid radikallariga nisbatan antioksidant faollik namoyon qilib, ozod radikallar xosil bo'luvchi, oksidlovchi destruktsiya bilan bog'liq kasalliklariga qarshi dori vositasi sifatida qo'llanilishi mumkin.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki shirinmiya o'simligi uzoq yil yashaydigan giyoh bo'lishi bilan bir qatorda, kelajakda muhim tabobat va tijorat o'simligi hisoblanadi. Ayni paytda bu o'simlikni Samarqand viloyati hududida plantatsiyalarini tashkil qilish, biologik xususiyatlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

1.H.X.Xolmatov, O'.A.Ahmedov, N.A.Musayeva "Farmakognoziya va botanika asoslari". Toshkent-2017. 14-bet.

2.M.O'.Allayarov va boshqalar. "Shirinmiya o'simligini tayyorlar va yetishtirish bo'yicha yo'riqnoma". Toshkent-2018.

3.S.M.Mustafaev "Botanika" Toshkent-2002. 428-bet.

4.O.G'.Xurramov, B.S.Islomov "Shirinmiya o'simligi urug'lari unuvchanligiga haroratning ta'siri" Samarqand-2020. 15-bet.

5.Ziyonet.uz

ЎЗБЕКИСТОНДА ТАРҚАЛГАН ДОРИВОР ЗИРК (*BERBERIS* PP.)ЎСИМЛИК ТУРЛАРИНИНГ МИКОБИОТАСИ

А.А.Абдуразаков[1], Ю.Ш. Ғаффоров[2]
[1]Андижон давлат университети
[2]ЎзР ФА Ботаника институти

Зикр доривор ўсимлик ҳисобланиб, халқ табобатида жигар хасталикларини даволашда, иситмани туширувчи, ич кетишни тўхтатувчи ва юракни мустаҳкамловчи восита сифатида қўлланилади. Шунингдек, унинг мевалари ўзига хос таъмга эга бўлганлиги сабабли турли хил таомларни маззали қилишда ишлатилади. Республикамизда зирк ўсимлигининг илдизи, танаси ва пўстлоқларидан қон оқишини тўхтатишда, турли хил шамоллаш хасталикларини даволашда қўлланилади [4].

Зирк (*Berberis* L.) ўсимлиги бутасимон шаклга эга бўлиб, Berberidaceae оиласига киради. Ер юзида 194 дан ортиқ тури учраб, асосан шимолий ярим